

TALKOTT PARSONSNING "SOTSIAL TIZIM" ASARI

Mirzayeva Sevinch Jumaboy qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy Fanlar Fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Ilxomov Umrbek

Ilmiy rahbar: Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15294059>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Talkott Parsonsning "Sotsial tizim" nomli asarining asosiy g'oyalari, ijtimoiy tizimlar nazariyasiga qo'shgan hissassi hamda zamonaviy sotsiologiyadagi ahamiyati yoritiladi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan funktsionalistik yondashuv, tizim elementlari va ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, sotsial institutlar va rollar to'g'risidagi konsepsiyalar tahlil qilinadi. Maqola sotsiologik nazariyalarni chuqurroq tushunish va zamonaviy ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Talcott Parsons, Sotsial tizim, strukturaviy-funktsionalizm, harakat nazariyasi, ijtimoiy institutlar, sotsiologik nazariya.

«СОЦИАЛЬНАЯ СИСТЕМА» ТОЛКОТТА ПАРСОНСА

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные идеи работы Талкотта Парсонса "Социальная система", его вклад в развитие теории социальных систем и значение в современной социологии. Анализируются функционалистский подход, разработанный автором, взаимодействие элементов системы, а также концепции социальных институтов и ролей. Статья служит важным источником для более глубокого понимания социологических теорий и анализа современных социальных структур.

Ключевые слова: Толкотт Парсонс, социальная система, структурный функционализм, теория действия, социальные институты, социологическая теория.

TALCOTT PARSONS'S "THE SOCIAL SYSTEM"

Abstract. This article explores the main ideas of Talcott Parsons' work The Social System, his contribution to social systems theory, and its relevance in contemporary sociology. It analyzes the functionalist approach developed by Parsons, the interaction between system elements, and the concepts of social institutions and roles. The article serves as an essential resource for deeper understanding of sociological theory and the analysis of modern social systems.

Keywords: Talcott Parsons, Social system, structural-functionalism, Keywords: Talcott Parsons, Social system, structural-functionalism theory, social institutions, sociological theory.

Talkott Parsons XX asrning eng yirik sotsiolog nazariyotchilaridan biri. Ilmiy jurnal sahifalarida uning ilk ishlari nashr etilganda yevropada jahon urushi oqibatida barqarorsizlik hukm surgan va bundanda og'irroq voqyealar, sotsiologik nazariyaning buyuk namoyandalarining ilk avlodi sahnadan ketishi kuzatilayotgan edi (E.Dyurkgeym 1918-yil, M.Veber 1921-yil, V.Pareto 1923-yil vafot etgan edi; F.Tyonnis o'z ishlarini yozsada, ta'lim sohasidan ajratilgan, xalqaro ilmiy jamoatchilik bilan aloqalari uzilgan edi), AQSh esa ilmiy potensial kengayib borgan bo'lsada, xali beri ilmiy dunyoning bir chetida qolib ketaverdi.

Parsons vafot etganda AQSh yirik ilmiy hokimiyatga aylandi. Parsonsning olim sifatidagi hissasi nafaqat bunda, balki sotsiologik nazariyalar taraqqiyotida vorisiyikni yo'lga qo'yganligi bilan belgilanadi. Klassik sotsiologlar ishlarini chuqur o'rganib (ayniqsa, yevropa olimlari), ularning g'oyalarini chuqur tahlil qilib, ularning boy tajribasini o'z konsepsiyalarida boyitdi.

Parsonsning nazariy ishlariga e'tibor qilsak, ularda klassik sotsiologlarning bugungi kunimizgacha ham eskirmagan, boy me'rosini to'la holda saqlab qolinganini ko'rishimiz mumkin. Talkott Parsons (1902-1979) 1902-yil 13-dekabrda AQShda, Kolorado shtatining Kolorado-Springs shahrida tug'ilgan. U ziyoli oiladan kelib chiqqan, otasi kongregatsiya ruhoniysi, professor va oxir-oqibat uncha katta bo'lmagan kollejning prezidenti bo'lgan.

Parsons noyob iste'dod egasi bo'lgan, shuningdek o'ziga xos sintetik tafakkurga ega bo'lib, u tabiatshunoslik, iqtisod, sotsiologiya fanlari sirlarini chuqur o'rgandi. Dastlabki ta'limni 1920-1924-yillarda Garvarddagi Amxerst kollejida tibbiyot bo'yicha olgan, uning dunyoqarashi shakllanishiga ushbu davrning mashhur iqtisodchi olimi Uilton Xamilton katta ta'sir etdi - uning ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Afsuski, Parsons kollejni bitirishiga bir yil qolganda bu olim kollejdandan haydaladi. Parsons biologiya, falsafa, va ayniqsa I.Kantning «Sof aqlning tanqidi» asarini chuqur o'rgandi. U Angliya adabiyoti kurslarida qatnashmoqchi edi.

Aspiranturada o'qishni juda orzu qilardi, hatto meditsina bo'yicha ham shuhrat qozonmoqchi bo'ldi. Uning asarlariga nazar tashlasak "Sotsial tizim" (1951), "Harakatning umumqamrovli nazariyasiga" (E.Shilz bilan hammualliflikda, 1951), "Jamiyat: evolyutsion va qiyosiy istiqbollari" (1966), "Sotsiologik nazariya va zamonaviy jamiyat" (1967), "Sotsial struktura va shaxs" (1970), "Sotsial tizim va harakat nazariyasi evolyutsiyasi" (1977), "Harakat nazariyasi va inson tuzilishi" (1978) kabi asarlarni yozgan. Talkott Parsonsning eng mashhur asari "Sotsial tizim" 1951-yilda yozilgan. Talkott Parsonsning sotsial tizim asarini yozishga nima sabab bo'lgan va asarning mazmun mohiyati nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy tizimning umumiy nazariyasini yaratish istagi: Parsons o'zidan oldingi ijtimoiy nazariyalar (Marks, Dyurkgeym, Veber kabi) parchalanib ketganini ko'rdi. U sotsiologiya uchun yagona, yaxlit, barqaror nazariy asos yaratishni istadi.

Aynan shu maqsadda "Social System" ni yozdi — u odamlarning ijtimoiy harakatlarini va tizimli tuzilishini yaxlit bir modelda tushuntirib bermoqchi bo'ldi. Ijtimoiy harakat va strukturaning o'zaro bog'liqligini tushuntirish: Parsons ilgari "The Structure of Social Action" (1937) asarida harakat nazariyasini ishlab chiqqan edi. Lekin u shuni angladiki, individual harakatlar faqat ijtimoiy tizimlar doirasida to'liq tushuniladi. Shu sababli, u harakat va tizim o'rtasidagi chuqur munosabatni batafsil tahlil qilish uchun "Social System" ni yozdi. Ijtimoiy barqarorlik va tartibni tushuntirish ehtiyoji: Ikkinchi Jahon urushi va undan keyingi davrda jamiyatlarning barqarorligi va ijtimoiy tartibni qanday saqlab qolish mumkinligi dolzarb masalaga aylandi. Parsons o'z asarida jamiyat qanday qilib o'z tizimini muvozanatda ushlab turishini va a'zolar qanday qilib tizimga moslashishini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Parsonsning tizim konsepsiyasi tizimning umumiy: nazariyasidan, xususan tizimli yondoshuvning ilk namoyandasi bo'lgan L.Bertalanfi va kibernetika asoschisi N.Vineming asarlaridan olib chiqadi. Tizimli yondoshuvni rivojlantirish tizimlardagi muvozanat holatini tushuntirish uchun kerak edi. Bu muammoni hal qilishga ochiq tizim tushunchasini kiritish bilan erishildi. U tashqi muhit bilan ayirboshlash munosabatlariga kirishib, murakkab tartibotlarni ushlab turuvchi tizim hisoblanadi. Parsonsga ko'ra, harakatlar ochiq tizimlardir. Shuning uchun ular o'z yashovchanligi bilan tartibotga erishishni ta'minlash uchun to'rtta tizimga xos ehtiyojlarni yoki funksional jihatdan zarur sharoitlarni qondirishi lozim (prerekvizit - old shart): adaptatsiya, maqsadga intilish, integratsiya /a latentlik. Shunday qilib, har bir tizim quyi darajada to'rt quyi tizim orqali namoyon bo'ladi. Ular esa, o'z navbatida tizimning yashovchanligini ta'minlash maqsadida unga xos to'rt ehtiyojni qondirish uchun tashkil topadi. Buni Parsons ifodalaydi. Adaptatsiya (A), maqsadga erishish (G), integratsiya (I) va latentlik (L) yoki qadriyat modelini Qo'llab-quvvatlash maqsadida bu funksiyalarini ishlab chiqadi. Bu to'rt funksiya birlashib AGIL tizimini tashkil etadi.. Demak, tizim yashab qolishi uchun quyidagi to'rt funksiyani bajarishi shart deb ta'kidlab o'tadi:

1. Adaptatsiya: tizim tashqi muhitning kutilmagan vaziyatda paydo bo'ladigan talablariga javob bera olishi kerak. U tashqi muhitga moslasha olishi va muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtirishi lozim.

2. Maqsadga erishish: tizim o'zining birlamchi maqsadlarini miqlay olishi va unga erishishi shart.

3. Integratsiya: tizim o'z elementlarining o'zaro munosabatlarini koordinatsiyalashi zarur.

U shuningdek, qolgan uch funksional imperativlarning munosabatlarini boshqarishi zarur (A, G, L)

4. Latent funksiyasi (qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash): tizim individlarning motivatsiyasini ham, motivatsiyani keltirib chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi madaniy namunalarni ham oziqlantirishi, qo'llab-quvvatlashi va yangilab turishi zarur.

Parsons AGIL sxemasini o'z nazariy tizimining barcha darajalarida foydalanish uchun yaratdi. Institutsionallashtirish jarayoni har biri o'ziga xos ehtiyojlarni qondirish funksiyasini namoyon etuvchi quyi tizimlarning tashkil topishini nazarda tutadi. Parsons o'zining asarlarida tizimli ierarxiyaning o'ziga barcha biologik organizmlarni qamrab olgan "tirik tizim"dan tortib to sotsial guruhgacha bo'lgan darajalarini ajratadi:

1. "Tirik tizim" quyidagi quyi tizimlarga ega:

A) fizikaviy-kimyoviy tizim - tirik tizimning noorganik muhitga moslashuvi funksiyasini bajaruvchi fizikaviy va kimyoviy jarayonlardan tashkil topadi;

B) organik tizim - tirik tizimning maqsadga erishishga intilishi funksiyasini bajaradi;

D) transsendental tizim - tirik tizimning mavjud bo'lishi transsendental sharoitlarini o'z ichiga oladi va "namunaviy mavjud bo'lishni qo'llab-quvvatlash" va tirik tizim ichidagi "zo'riqlashlarni yumshatish" funksiyasini bajaradi;

E) harakatlar tizimi - biz tomonimizdan «yagona harakat» sifatida qarab o'tilgan - tirik tizimning integratsiya funksiyasini bajaruvchi, shart-sharoitlar ta'siri ostida qabul qilinadigan hukmlar (ahamiyat) bilan nazoratga olingan harakat.

2. Sanab o'tilgan tizimlarning quyi tizimlari. Parsons harakat tizimining to'rt quyi tizimlarini oldingi qismda birma-bir qarab o'tilgan omillar asosida ajratadi. To'rtta harakat tizimi bilan tanishishda o'quvchi ular real olamda mavjud emasligi, balki bu olamning tahlil qilish uchun tahlil qurollari bo'lib hisoblanishini yodda tutishi lozim.

Sotsial harakatning quyi tizimlari:

A) biologik tizim (xulq-atvor organizmi) - insonning harakatlari olamini tashkil etuvchi moddiy (instinkt va biologik ehtiyojlari) va g'oyaviy olami (me'yorlar, qadriyatlar) o'rtasida bog'lovchi zveno sifatida xizmat qiluvchi tizim (adaptatsiya);

B) shaxs tizimi («Ego») — individning motivatsion strukturasi; organizm va shaxs tizimi "bazis strukturasi"ni hosil qiladi va

3. Sotsial tizimning quyi tizimlari esa quyidagilar:

A) iqtisodiy tizim (adaptatsiya);

B) siyosiy tizim (maqsadga erishish);

D) sotsietal hamjamiyat tizimi (integratsiya);

E) ijtimoiylashuv tizimi (qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash).

Shu tarzda davom ettirilsa, konkret sotsial hodisani izohlash mumkin bo'ladi. Parsons ham shu joyda to'xtab, ikkinchi va uchinchi darajalar bilan kifoyalangan.

Shunday qilib, «yagona harakat» oʻzida institutsionallashuv davomida rivojlanib boradigan toʻrt quyi tizimni birlashtiradi. Ularning har biri shu tariqa oʻzining quyi tizimini yaratadi va h.k. Har bir darajaning quyi tizimlari tizimning yashovchanligini saqlab qolish uchun zarur boʻlgan funksional sharoitlarni qondirish uchun rivojlanadi. Tizimli yondoshuv doirasida ochiq tizimlar nazariyasini ishlab chiqishga asoslangan yana bir gʻoya sifatida Parsonsning kibernetik ierarxiya va oʻzaro aloqadagi tizim va quyi tizimlarning axborot almashinuvi konsepsiyasi namoyon boʻladi. Uning nazariyasi - ahamiyatlar - qadriyatlar, meʼyorlar va h.k. kommunikatsiyasi nazariyasi ekanligi maʼlum. Ular ichida tizimlar va quyi tizimlar bir. Sotsial tizimlar - inson xulq-atvorini boshqaruvchi va uni rol va statuslar tizimiga oʻzgartiruvchi qoidalar, meʼyorlar, barqaror komplekslari sifatida talqin etiluvchi institutsional tizimlardir. Sotsial tizim oʻzaro bogʻliq boʻlgan darajalardan tarkib topgan strukturaga ega: individ - guruh (jamoalar) - institutlar - yaxlit jamiyat. Yuqorida keltirilgan har bir darajaga oʻz ierarxiya turi toʻgʻri keladi: texnik, «menejerial», institutsional va sotsietal. Sotsietal darajada sotsial tizim toʻrtta quyi tizimning birlashuvi natijasi sifatida shakllanadi: iqtisodiy (adaptatsiya funksiyasi), siyosiy (maqsadga erishish funksiyasi), «sotsietal birlik» (integratsiya funksiyasi) va «fidutsiar» (latentlik funksiyasi). Sotsietal birlik - butun bir sotsial tizimning yadrosi - yagona meʼyoriy namunalar asosida tashkillashtirilgan va tartibga solingan jamoalar tizimi yoki yigʻindisi, meʼyorlar, qadriyatlar va meʼyoriy namunalarni oʻz ichiga oladi. Insonlar oʻrtasidagi oʻzaro ayirboshlashning umumlashma vositasi sifatida pul, hokimiyat yoki qadriyatli xususiyatlar emas, balki «taʼsirlashuv» va «birdamlik» tan olinadi. Parsons sotsial tizimlar haqida gapirar ekan, ularning har biri uchun qolgan uchta muhit boʻlib xizmat qilishini nazarda tutadi, yaʼni sotsial tizim uchun madaniyat, shaxs, organizm boʻlib xizmat qilsa, shaxs uchun - sotsial tizim, madaniyat, organizm, madaniyat uchun - sotsial tizim, shaxs, organizm, biologik organizm uchun sotsial tizim, madaniyat, shaxs. Parsons bu toʻrtlikda asosiy oʻrinni sotsial tizimga beradi, chunki aynan sotsial tizim «harakatni real empirik tashkil etish va nazariy tahlilning mustaqil markazi» hisoblanadi.

Sotsial tizimning quyi tizimlari quyidagilar:

- A) iqtisodiy tizim - sotsial tashkilot va tabiiy muhit oʻrtasida «bogʻlovchi zveno» (adaptatsiya);
- B) siyosiy tizim - maqsadga erishish funksiyasini bajarib, hukm chiqarish shakllarini, maqsadlarni standartlashtirish va ularga erishish yoʻlida resurslarni yoʻnaltirishni oʻz ichiga oladi;
- D) sotsietal hamjamiyat tizimi (sotsial nazorat) - integratsiya funksiyasini bajarib, sotsial nazoratning barcha institutlarini - qonunlardan tortib norasmiy qoidalargacha - oʻz ichiga oladi va bajaradi. Parsonsdan qismlarning oʻzaro taʼsirlashuvini tartibga solib turuvchi element sifatida struktura (doimiy harakatda boʻlgan sotsial xatti-harakatlarning harakatsiz yaxlitligi).

Struktura deganda sotsial me'yor va statuslar tizimi (yoki me'yoriy tartib) tushuniladi.

Me'yoriy tartib o'z ichiga quyidagilarni oladi: sotsial tartib va sotsial me'yorlar (qonuniy status berilganligi uchun ko'pchilik insonlar tomonidan amal qilinadigan o'zgarmas qoidalar). Sotsial tartib ikki jarayonning ta'sirida yuzaga keladi. Sotsial tizimning o'zini o'zi saqlab qolishga qaratilgan tendensiyalari ma'lum bir chegaralarni va muhitga nisbatan doimiylikni saqlab qolishga qaratilgan tendensiyalar (homeostatik muvozanat). Parsons ijodining yadrosi to'rtta harakat tizimlarida namoyon bo'ladi. Harakat tizimlari tahlili vaqtida Parsons tomonidan qilingan taxminlarda biz tartib muammosi bilan to'qnash kelamiz. So'nggisi

Parsonsning ustun keladigan qiziqishi bo'lgan va uning ijodi tanqidining muhim manbai bo'lib qolgan. Ilk faylasuflarning hamma hammaga qarshi ijtimoiy urushiga to'sqinlik qiluvchi Gobbs tartiboti muammosiga javoblari Parsonsni qanoatlantirmas edi. Parsons bu muammoga javobni uning fikricha, quyidagi taxminlar to'plami doirasida amal qiluvchi strukturaviy funksionalizmdan topdi:

1. Tizimlar tarkibiy qismlarning tartibliligi va mustaqilligi xususiyatlariga ega.
2. Tizimlar o'zini quvvatlovchi tartib yoki muvozanatga moyillikka ega.
3. Tizim statik bo'lishi yoki tartibga solingan o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishi mumkin.
4. Tizimning bir qismi xarakteri boshqa qismlar olishi mumkin bo'lgan shaklga ta'sir ko'rsatishi mumkin.
5. Tizimlar o'zining tashqi muhiti bilan chegarani ushlab turadi.
6. Taqsimot va integratsiya — berilgan tizimning muvozanat holati uchun zarur bo'lgan ikkita fundamental jarayondir.
7. Tizimlar o'zini quvvatlovchi tartibga moyil bo'lib, bu qismlarning chegarasi va butunlik bilan o'zaro munosabatlarini saqlab qolish, tashqi muhit modifikatsiyasi nazorati va tizimning ichki o'zgarishga moyilligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Bu taxminlar Parsonsni shunga olib keldiki, jamiyatning tartibga solingan tuzilmasi tahlili uning uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qoldi. "Sotsial tizim" asari qanday yakun topadi. Talkott Parsonsning "Sotsial tizim" asari, umumiy tarzda, sotsiologiya va ijtimoiy tizimlar haqidagi fundamental tushunchalarni tushuntiradi. Asarda tizimning o'zgarishi, ijtimoiy tizimning dinamikasi va ijtimoiy muhitning ijtimoiy tizimga qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. Asarning tugashida Parsons, tizimlarning barqarorlik va o'zgarishning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. U, shuningdek, ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi unsurlarni va ularning o'zaro munosabatlarini tushunishning muhimligini ta'kidlaydi. U, ijtimoiy tizimning rivojlanishida individual xatti-harakatlar va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini o'rgatadi.

Asar, ayniqsa, ijtimoiy tizimlarning kompleksligi va o'zgarishlarga qanday moslashishini tushunishda zarur bo'lgan nazariy asoslarni beradi. Bu yerda ijtimoiy tizimning barqarorligi va o'zgarishlar orasidagi muvozanatga erishish uchun qanday ijtimoiy normalar va strukturalar kerakligi haqida muhim fikrlar mavjud bo'lgan.

Xulosa qilib aytishimiz joizki: Talcott Parsonsning "Sotsial tizim"(1951) asari sotsiologik nazariyada muhim yasagan fundamental ilmiy ishlardan biridir. Bu asarda muallif jamiyatni murakkab, o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin etadi va har bir ijtimoiy institut yoki aktor tizim barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. U ishlab chiqqan AGIL modeli (Adaptation, Goal attainment, Integration, Latency) yordamida har qanday ijtimoiy tizim qanday funksiyalarni bajarishi kerakligi izohlanadi. Asarda asosiy e'tibor shaxs, institut va tizim o'rtasidagi murakkab munosabatlarga qaratilgan. Parsons odamlarning harakati faqat individuallik asosida emas, balki ijtimoiy rol va qadriyatlar tizimi asosida shakllanishini isbotlaydi. Bunda har bir ijtimoiy institut, xususan, oila, din, siyosat va ta'lim, tizimdagi umumiy muvozanat va integratsiyani ta'minlovchi komponentlar sifatida ko'riladi. Parsonsning yondashuvi ko'plab sotsiologlar tomonidan strukturaviy-funksionalizm deb nomlangan yangi paradigmani shakllantirdi. Bu yondashuv jamiyatni murakkab tizim deb qaraydi, har bir element o'z funksiyasini bajarsa, tizim o'z-o'zidan muvozanat holatida saqlanadi, degan g'oyaga asoslanadi. Shuningdek, "Sotsial tizim" asari zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy tartib, barqarorlik va me'yorlarning roli qandayligini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. U ijtimoiy strukturani abstrakt va nazariy darajada tahlil qilib, real hayotdagi ziddiyatlar, ijtimoiy adolatsizliklar va o'zgarishlarga nisbatan nisbatan sust yondashgani uchun tanqid qilinsa-da, bu asar bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Parsonsning "Sotsial tizim" asari — bu faqatgina bir nazariy model emas, balki ijtimoiy hayotni tartibli, izchil va ilmiy asosda tushunishga bo'lgan chuqur urinishdir. U sotsiologik fikrlash uslubini o'zgartirdi va keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim metodologik asos yaratdi.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy tizimlarning o'zgaruvchan sharoitida ushbu asarning mazmuni va yondashuvi hali ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hozirgi kunda sotsiologiya juda rivojlanib kelmoqda.

REFERENCES

1. G.SH.Jiyanmuratova "Sotsiologiya tarixi" darslik, Toshkent-2020
2. Parsons, T. (1951). The Social System. Glencoe: Free Press.
3. Parsons, T. (1961). Essays in Sociological Theory. Glencoe: Free Press.
4. Giddens, A. (2006). Sociology (6th ed.). Cambridge: Polity Press.

5. Ritzer, G. (2011). Sociological Theory (8th ed.). McGraw-Hill.
6. Hughes, E. C. (1962). The Sociological Eye: Selected Papers. Chicago: University of Chicago Press.
7. Smelser, N. J. (1997). Sociology. 4th ed. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
8. Turner, J. H., & Ritzer, G. (2011). The Blackwell Companion to Social Theory (3rd ed.). Oxford: Wiley-Blackwell.
9. Giddens, A. (2009). Sociology (6th ed.). Cambridge: Polity Press.
10. Luhmann, N. (1995). Social Systems. Stanford: Stanford University Press.
11. Alexander, J. C. (1982). Theoretical Logic in Sociology, Vol. 1: Positivism, Presuppositions, and the Logic of the Social Sciences. University of California Press.
12. Sotsiologiya tarixi Toshkent "Innovatsiya- ziyo" 2020 G.SH. Jiyanmuratova
13. O'zbekiston Milliy univertiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya" kafedrası "Sotsiologiya" nomli darslk. Toshkent: "VNESHNVESTPROM" -2023.
14. Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna Sotsiologiya tarixi
15. Darslik / - Toshkent: "Innovatsiya –ziyo"